

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
“Yashil” iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиша Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
“Universitet-ishlab chiqarish” integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution.....	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalarini faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili.....	138
Ro'zmamatov Abbos Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Ekspost – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida.....	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны.....	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi.....	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане.....	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar.....	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi.....	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari.....	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения.....	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari.....	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана.....	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish.....	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni.....	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики.....	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея.....	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba.....	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildiyevich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала.....	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



MALAYZIYA IQTISODIYOTIDA ISLOM KAPITAL BOZORI AHAMIYATINING TAHLILI

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li

“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi sektor mudiri, PhD

Annotatsiya: Jahonda islom moliyasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Moliya bozorining barcha sektorlarida islom moliyasi instrumentlaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada islom kapital bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini Malayziya misolida o'rganilgan. Bozorning davrlar, sektorlar va instrumentlar kesimidagi holatiga sharh berilgan.

Kalit so'zlar: Jislim kapital bozori, sukuk, aksiya, obligatsiya, emissiya, IILM, MIFC.

Аннотация: Интерес к исламским финансам растет во всем мире. Все большее значение приобретает рациональное использование инструментов исламского финансирования во всех секторах финансового рынка. В статье рассматривается роль рынка исламского капитала в экономике страны на примере Малайзии. Состояние рынка рассматривается по периодам, секторам и инструментам.

Ключевые слова: Исламский рынок капитала, сукук, акция, облигация, выпуск, IILM, MIFC.

Abstract: Interest in Islamic finance is growing all over the world. The rational use of Islamic finance instruments in all sectors of the financial market is becoming increasingly important. The article discusses the role of the Islamic capital market in the country's economy on the example of Malaysia. The state of the market is reviewed on by periods, sectors and instruments.

Key words: Islamic capital market, sukuk, stock, bond, issue, IILM, MIFC.

KIRISH

Bugungi kunda islom kapital bozori eng rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblangan Malayziyada soha mustahkam asosga ega. Mamlakat innovatsion mahsulotlar va ekotizimni qo'llab-quvvatlovchi islomiy moliya sohasida global yetakchi sifatida gavdalanib kelmoqda. Malayziya o'zining keng qamrovli me'yoriy-huquqiy bazasi, qulay bozor infratuzilmasi va shariatga mos keladigan moliyaviy mahsulotlar hamda xizmatlarning keng doirasi bilan o'zini islomiy kapital bozori faoliyati uchun afzal joy sifatida namoyon etmoqda. Islom moliyasining rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirlari doirasida avval bir necha tadqiqotlar o'tkazilgan¹. Mazkur maqolada Malayziya islom kapital bozorining mamlakat kapital bozorida roli va ko'lamini tahlil qilinadi.

2022-yilda jahon iqtisodiyoti Ukrainadagi harbiy vaziyat, global inflyatsiya bosimining oshishi, global moliyaviy sharoitlarning kuchayishi va Xitoyda iqtisodiy o'sishning sekinlashishi natijasida yuzaga kelgan muhim muammolarga duch keldi. Shunday global vaziyatga qaramay Malayziya iqtisodiyoti barqaror bo'lib qoldi va ichki talab tufayli iqtisodiyot rivojlanishda davom etdi. Jahon moliya bozorining yuqori o'zgaruvchanligi sharoitida ichki kapital bozorida sharoitlar jiddiy ta'sirga uchramadi va u iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish hamda jamg'armalarni safarbar qilishda hal qiluvchi rol o'ynashda davom etdi. 2022-yilda moliyaviy resurslarni jalb qilish faoliyati sezilarli darajada yaxshilandi. Kelajakda Malayziya iqtisodiyoti tobora murakkablashib borayotgan global iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda, mo'tadil sur'atlarda bo'lsa-da, 2023-yilda tiklanishning davom etishi kutilmoqda. Malayziyaning ichki kapital bozori mustahkam makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va qulay muhitni hisobga olgan holda barqaror va tartibli bo'lib qolishini kutish mumkin.

1 Abrorov, Sirojiddin. "The importance of sukuk in the development of economy: as an example of its impact on the income of the malaysian population." Journal of Critical Reviews 7.2 (2020): 776-780., Abrorov, S., & Qoraboev, N. (2020). Qimmatli qo'zoqlar bozorida sukkuning roli o'g'ir ilmiy-nazariy muhozaalar va uning uzi o'g'ir xos xizmatlari. Economics and education, (1), 126-130., Abrorov, Sirojiddin. "THE ANALYSIS OF WORLD SUKUK MARKET." Arxiv nauchnykh issledovaniy 4.1 (2022)., Abrorov, Sirojiddin. "SUKUK BOZORINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI." Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 1.1 (2023): 13-20.



Malayziya islom kapital bozorining global yetakchisi sifatida Malayziya qimmatli qog'ozlar komissiyasi bozorning manfaatdor tomonlari bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirishda va Malayziyada bozorning yetakchiligini saqlab qolishda davom etishini ma'lum qilgan. 2022-yil davomida Malayziya qimmatli qog'ozlar komissiyasi boshchiligidagi islom kapital bozoriga oid tadbirlari asosiy manfaatdor tomonlarni, shu jumladan, olimlar, amaliyotchilar, tartibga soluvchilar, vositachilar va investorlarni birlashtirib, bozorning barqaror rivojlanish, inklyuzivlikni rivojlantirishdagi rovidan tortib, islom ijtimoiy moliyasi va islom "fintech"largacha bo'lgan masalalarni o'zida qamrab oldi. Konferensiyalar, seminarlar va forumlar kabi turli xil strategik platformalar bozorning milliy va global miqyosda ishtirokchilar bilan muvaffaqiyatli o'zaro aloqalarini rag'batlantirdi.

ASOSIY QISM

Pandemiya keltirib chiqargan global muammolarga qaramay Malayziya 2021-yilda yirik islom kapital bozori markazi va sukuk emissiyalari bo'yicha yetakchi bo'lib qolishda davom etdi. Malayziya Qimmatli qog'ozlar komissiyasining 2021-yilgi yillik hisobotiga ko'ra, islom kapital bozori hajmi 2020-yil oxiridagi 538 milliard AQSh dollaridan 2021-yil oxirida 550 milliard AQSh dollariga yetdi. Islom kapital bozori Malayziya kapital bozorining asosiy komponenti bo'lib qolmoqda va uning 65,4% hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu 548 milliard dollarlik shariatga muvofiq qimmatli qog'ozlarning umumiy bozor kapitallashuvini, shundan 262 milliard AQSh dollari miqdoridagi jami sukukni o'z ichiga oladi.

Bozorning o'sishi uchun mintaqaviy va global standartlarning muhimligini hisobga olgan holda, Malayziya Qimmatli qog'ozlar komissiyasi orqali islom kapital bozori ekotizimini faol ravishda rivojlantirmoqda. 2021-yilda Qimmatli qog'ozlar komissiyasi keyingi besh yil uchun, ya'ni 2021-yildan 2025-yilgacha bo'lgan uchinchi kapital bozori bosh rejasini (CMP3) taqdim etdi, bu Malayziyada yanada samarali va diversifikatsiyalangan kapital bozorini yaratishga qaratilgan faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Malayziyaning islom kapital bozori bo'yicha global markaz sifatidagi xalqaro nufuzi o'n yillar davomida mustahkamlanib bordi. Malayziya Qimmatli qog'ozlar komissiyasi infrastrukturani yaxshilash va barqaror rivojlanishdan tortib ijtimoiy moliya va yashil investitsiyalargacha sohalarida islom kapital bozorining rolga bag'ishlangan muhokamalarni katalizatsiya qilish uchun olimlar, amaliyotchilar, tartibga soluvchi tashkilotlar, investitsion vositachilar va investorlarni bir joyga jamlovchi ko'plab turli chora-tadbirlarni amalga oshirgan.


Malayziya Qimmatli qog'ozlar komissiyasi islom kapital bozori strategiyasi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Shu sababli yangi konsepsiyalar Malayziya islom kapital bozorida shakllanib bormoqda. Jahondagi birinchi yashil sukuk, ESG sukuk, Vaqf fondining IPOsi va raqamli aktivlar birjasida ro'yxatdan o'tgan raqamli aktivlar bilan savdo qilish va investitsiya kiritishga Malayziya shariat kengashini ruxsati shular jumlasidandir.

Malayziya islom kapital bozorining me'yoriy-huquqiy bazasi uning muvaffaqiyatining asosiy omili bo'lib mahalliy va xalqaro investorlarni jalb qilishda muhim rol o'ynadi. Qimmatli qog'ozlar komissiyasi (SC) islom qimmatli qog'ozlarining chiqarilishi va savdosini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan asosiy tartibga soluvchi organ hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar komissiyasining bosh vazifasi bozor yaxlitligini saqlash, investorlarni himoya qilish va bozorda shaffoflik va oshkorlikni ta'minlash hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar komissiyasi islom kapital bozoriga moslashtirilgan keng qamrovli qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini ishlab chiqadi. Ushbu qoidalar islom moliyasining turli jihatlarini, shu jumladan, sukuk va boshqa shariatga mos moliyaviy instrumentlardan foydalanish, savdo qilish va oshkor qilish talablarini qamrab oladi.

Malayziya markaziy banki (Bank Negara Malaysia – BNM) islom moliyasi tizimining barqarorligi va rivojlanishini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Malayziya markaziy banki mamlakatda islom banki va moliyasi bo'yicha umumiy siyosat asoslari va ko'rsatmalarini belgilaydi. Malayziyadagi me'yoriy-huquqiy baza islomiy moliyasi institutlarining shariat tamoyillariga rioya qilgan holda va qat'iy tartibga solish standartlariga javob beradigan ishonchli hamda oshkora ishlashini ta'minlaydi. U islom moliyasi institutlarining belgilangan qoidalariga muvofiqligini ta'minlash uchun ularni muntazam ravishda kuzatib borish, nazorat qilish va tekshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu nazorat bozor ishonchini saqlashga yordam beradi va investorlar manfaatlarini himoya qiladi.


Bundan tashqari, Malayziya islom kapital bozorini qo'llab-quvvatlash uchun turli xil nazorat qiluvchi organlar va tashkilotlarni ham tashkil etgan. Bularga malakali shariat olimlari va mutaxassislaridan iborat Shariat maslahat kengashi (SAC) kiradi. Shariat maslahat kengashi shariatga muvofiq bitimlar bo'yicha ko'rsatmalar va qarorlarni taqdim etadi, bu bozorda taqdim etilayotgan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning shariat tamoyillariga muvofiqligini ta'minlaydi. Malayziyaning shariat boshqaruvi tizimi tartibga solingan bo'lib uning barqaror doirasi investorlarning ishonchini oshiradi va islomiy kapital bozorining o'sishiga hissa qo'shadi.

Islom kapital bozori Malayziya kapital bozorining ajralmas qismi bo'lib uning deyarli 64,4 foizini tashkil qiladi (1-rasm). Malayziya islom kapital bozorining hajmi 2022-yilda 2,3 trln. Malayziya ringgitini tashkil qilgan. Shundan 1,1 trln.dan Malayziya ringgitidan ortig'i shariatga muvofiq aksiyalar bo'lsa 1,2 trln. Malayziya ringgitiga yaqini muomaladagi sukuklar hisoblanadi. Islom kapital bozori 2022-yilda 0,6 foizlik o'sishni qayd etgan.




1-rasm: Malayziya kapital bozori tarkibi (2022-yil)²

Malayziya kapital bozorining 48,1 foizini aksiyalar tashkil etsa, qolgan 51,9 foizlik ulush obligatsiyalar va sukuklar hissasiga to'g'ri keladi. 2022-yilda islom kapital bozori o'sishining yagona omili bu muomaladagi sukuklar hajmining ortishi bo'lib qolmoqda (2-rasm). Shariatga muvofiq aksiyalar hajmida pasayish kuzatilgan.



2-rasm: Malayziya islom kapital bozori hajmi³

Malayziya fond bozorida shariatga muvofiq aksiyalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. 2022-yil dekabr ma'lumotlariga ko'ra listingdan o'tgan 972 ta aksiyalarning 789 tasi (81,2 foiz) shariatga muvofiq aksiyalar hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm: Malayziya islom kapital bozoridagi shariatga muvofiq aksiyalarning ulushi (foizda)⁴

2 Security Commission of Malaysia. Annual Report 2022. p91.

3 IIFM Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, August 2022, 11th edition. pp 166.

4 Security Commission of Malaysia. Annual Report 2022. p173.



2021-yil yakunlariga ko'ra mazkur ko'rsatkich 750 tani (79,0 foiz) tashkil etgan. Hajm nuqtayi nazaridan shariatga muvofiq aksiyalar qiymati 2022-yil yakuniga ko'ra 1,14 mlrd. malayziya ringitini tashkil etib umumiy bozori hajmining 65,6 foizini tashkil etgan.

Malayziya fond bozorida listingdan o'tgan shariatga muvofiq aksiyalarning asosiy qismi sanoat va iste'mol mahsulotlari va xizmatlari sohasiga to'g'ri keladi (1-jadvalga qarang). Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, mazkur aksiyalarning deyarli barchasi asosiy vositalar hajmi ustuvorlik qiladigan korxonalar hisoblanadi.

1-jadval: Malayziya fond bozorida listingdan o'tgan shariatga muvof aksiyalarning sektorlar kesimidagi taqsimoti⁵

T/r	Soha (tarmoq) nomi	Aksiyalar soni
1.	Sanoat mahsulotlari va xizmatlari	239
2.	Iste'mol mahsulotlari va xizmatlari	155
3.	Mulk egaligi	90
4.	Texnologiya	86
5.	Qurilish	61
6.	Qishloq xo'jaligi	36
7.	Transport va logistika	31
8.	Energiya	27
9.	Sog'liqni saqlash	27
10.	Telekommunikatsiya va media	21
11.	Moliyaviy xizmatlar	5
12.	Boshqalar	11

Malayziya kapital bozorida islom fondlari 2022-yil yakunlariga ko'ra 205,9 mlrd. malayziya ringitini tashkil etgan bo'lib jami fondlarning 22,7 foizini tashkil etgan. Islom fondlarining soni esa 57 taga yetgan bo'lib shundan 33 tasi an'anaviy fondlarning islomiy darchalari va 24 tasi to'laqonli islomiy fondlar hisoblanadi. Mazkur fondlar turli shakldagi 404 ta investitsiya mahsulotlarini boshqarib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan ma'lumki, islom kapital bozori Malayziya moliya bozorida hal qiluvchi rol o'ynaydi va uning umumiy moliyaviy barqarorligi, rivojlanishi hamda o'sishiga katta hissa qo'shadi. Dunyoning yetakchi islom moliya markazlaridan biri sifatida Malayziya islomiy kapital bozori tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanish uchun strategik mavqega ega bo'lib, u orqali iqtisodiyotga bir nechta muhim hissa qo'shadi:

Moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish. Islom kapital bozori investorlar va korxonalarga shariatga mos keladigan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanishning muqobil yo'lini taklif qilish orqali Malayziyaning an'anaviy moliya tizimini to'ldiradi. Ushbu diversifikatsiya moliyaviy imkoniyatlarni oshiradi, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya imkoniyatlarini izlayotgan mahalliy hamda xalqaro investorlarning keng doirasini jalb qiladi.

Infratuzilmani rivojlantirishni moliyalashtirish. Islom kapital bozorining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sukuk Malayziyadagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun keng qo'llaniladi. Hukumat va korporatsiyalar sukukdan transport, kommunal xizmatlar va jamoat obyektlari kabi muhim infratuzilmani rivojlantirishga mablag' shakllantirish uchun foydalanadilar. Ushbu moliyalashtirish mexanizmi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirishga yordam beradi va barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi.

Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash. Islom kapital bozori investorlarga diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini taqdim etish va moliya tizimidagi tizimli xatarlarni kamaytirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Shariatga muvofiq qat'iy boshqaruv doirasi va islom moliyasiga xos bo'lgan axloqiy tamoyillar yanada barqaror moliyaviy ekotizimni yaratishga yordam beradi.

Islom moliya sohasida global yetakchilik. Malayziyaning islom kapitali bozorida kuchli ishtiroki uning islom moliya sohasida jahon yetakchisi sifatidagi obro'sini oshirdi. Mamlakatning tajribasi, sukuk va boshqa islomiy moliyaviy mahsulotlarni chiqarish bo'yicha kashshof tashabbuslari uni xalqaro Islom moliya hamjamiyatining asosiy ishtirokchisiga aylantirdi.

⁵ Security Commission of Malaysia. Annual Report 2022. p173.



Malayziya o'zining islom kapital bozorini xalqarolashtirishni faol ravishda amalga oshirib kelmoqda. Xalqaro islom likvidligini boshqarish korporatsiyasi (IIFM) va Malayziya xalqaro islom moliya markazi (MIFC) kabi tashkilotlar Malayziyaning islom kapitali bozorida ishtirok etish uchun xalqaro investorlar va emitentlarni jalb qilishga qaratilgan. Ushbu sa'y-harakatlar transchegaraviy islom moliyasi operatsiyalarning o'sishiga hissa qo'shib Malayziyani xalqaro islom moliyasi markaz sifatida tanitib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abrorov, Sirojiddin. "The importance of sukuk in the development of economy: as an example of its impact on the income of the malaysian population." *Journal of Critical Reviews* 7.2 (2020): 776-780.
2. Аброров, С., & Қорабоев, Н. (2020). Қимматли қоғозлар бозорида суқукнинг ролига оид илмий-назарий мулоҳазалар ва унинг ўзига хос жиҳатлари. *Economics and education*, (1), 126-130.
3. Abrorov, Sirojiddin. "THE ANALYSIS OF WORLD SUKUK MARKET." *Архив научных исследований* 4.1 (2022).
4. Abrorov, Sirojiddin. "SUKUK BOZORINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG 'OR TA-JRIBALARI." *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* 1.1 (2023): 13-20.
5. Security Commission of Malaysia. *Annual Report 2022*. p91.
6. IIFM Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. *International Islamic Financial Market*, August 2022, 11th edition. pp 166.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

